

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

AKADEMIK KENGASHNING 6-MAJLISI BAYONNOMASI

2025-yil 6-fevral

Toshkent - 2025

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
AKADEMIK KENGASHI MAJLISINING
6-BAYONNOMASI

Toshkent shahri

2025- yil 6-fevral

Qatnashdilar:

A'zolar: S.Safoyev (rais), A.Umarov (rais o'rinbosari), M.Abduraxmanova (Akademik kengash kotibi), O.Yusupdjanov, G.Ismailova, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, A.Turdimatov, I.Xamedov, M.Xamdamiyov, Sh.Arapov, L.Xodjayev, B.Salaxitdinov, O.Mannopova, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, I.Yakubov, Sh.Masadikov, R.Yusufaliyeva, Y.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, N.Raimova, A.Rasulov, N.Muminova, M.Abdullayeva, A.Abdullayev, N.Sirajiddinov

Doimiy taklif qilinganlar: U.Dustov, A.Nasirov, M.Siddikova, I.Mo'minov, Sh.Shakirova, M.Sheraliyev, B.Xasanov, A.Xakimov, F.Tashev.

Qatnashmadilar: A'zolar: U.Xasanov, I.Mavlanov, M.Baqoyev

Doimiy taklif qilinganlar: D.Normetova, Sh.Urinov.

KUN TARTIBI:

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi va mas'ullar	Hujjat kodi
6-1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarorida belgilangan 2025-yil uchun indikatorlarni belgilash to'g'risida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	A
6-2	JUDU 2024-25-o'quv yili 1-semestrining akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlili to'g'risida	Birinchi prorektor A.Umarov	B
6-3	JIDU huzuridagi Diplomatik akademiyaning 2024-yildagi faoliyati bo'yicha hisobot.	Diplomatik akademiya direktori A.Xaydarov	D
6-4	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	E

	mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaror ijrosi		
6-5	Universitet o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya qilish to'g'risida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova AK kotibi M.Abduraxmanova	F
6-6	<p>Turli masalalar</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o'qituvchilarini Scopus/Web of Science tizimida chop etilgan maqolalari uchun rag'batlantirish Nizomini tasdiqlash - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar mavzularini tasdiqlash 	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	G

Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq Ilmiy kengash majlisini boshlashga yetarli kvorum bor ekanligini ma'lum qildi.

Bildirilgan mulohazalar:

Akademik kengash a'zolari majlisni boshlashni bir ovozdan ma'qulladilar.

1-MASALA. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarorida belgilangan 2025-yil uchun indikatorlarni belgilash to'g'risida (Hujjat A)

ESHITILDI: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarorida belgilangan 2025-yil uchun indikatorlarni belgilash to'g'risida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **G.Ismailova** axboroti tinglandi.

Bildirilgan mulohazalar:

Indikatorlar Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha 1-6-A-ilovadagi yillik ko'rsatkichlar ijro uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori 2025-yil uchun ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash borasida barcha bo'limlar, dekanatlar, kafedralar va professor-o'qituvchilar ishi kuchaytirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

2-MASALA. JUDU 2024-25-o'quv yili 1-semestrining akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlili to'g'risida (Hujjat B)

ESHITILDI: JUDU 2024-25-o'quv yili 1-semestrining akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlili yuzasidan universitetning Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektori A.Umarov so'zga chiqib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida 2024-2025 o'quv yili I semestri yakunlari bo'yicha talabalar o'zlashtirishining natijalari haqida tahliliy axborot berdi. Jumladan, talabalar o'zlashtirishi fakultetlar, kurslar, fanlar kesimida tahlil qilindi hamda akademik qarzdorlik sabablari atroflicha muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash a'zolari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar tinglandi.

Hisobot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektori A.Umarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026-o'quv yilidan boshlab JIDU imkoniyatlarini inobatga olgan holda asosiy qabul kvotasiga nisbatan maksimal 30%gacha kvotani joriy qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taklif kiritilsin (mas'ul: U.Dustov; muddat: 15-fevral).

3. 2024/2025-o'quv yili 2-semestri davomida akademik qarzdor talabalar uchun qayta o'qitish ishlari tashkil etilsin (mas'ullar: I.Mo'minov, kafedra mudirlari; muddat: 10-fevral).

4. Akademik Kengashning mazkur qarorlari ijrosi yuzasidan nazorat Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor **A.Umarov**ga yuklatilsin.

3-MASALA. JIDU huzuridagi Diplomatik akademiyaning 2024-yildagi faoliyati bo'yicha hisobot (Hujjat D)

ESHITILDI: JIDU huzuridagi Diplomatik akademiyaning 2024-yildagi faoliyati bo'yicha Diplomatik akademiya direktori A.Xaydarovning hisoboti tinglandi.

Bildirilgan mulohazalar:

Hisobot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23 iyuldagi PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash borasida JIDU huzuridagi Diplomatik akademiya tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Diplomatik akademiyaning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va axborot-tahliliy ishlarini faollashtirish va sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilish ta'minlansin. Mazkur masala ijrosi Diplomatik akademiya direktori **A.Xaydarov**ga yuklatilsin.

3. 2025-2026 o'quv yili uchun JIDU va Dipakademiya magistraturasi mutaxassisliklari va qabul kvotalari bo'yicha takliflar o'rnatilgan tartibda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga kiritilsin. **Muddat: 2025-yil 15 fevral. (Mas'ullar - A.Umarov, A.Xaydarov).**

4. Dipakademiya respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun JIDU ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lgan doimiy faoliyat yurituvchi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etilsin. Mazkur masala ijrosi Diplomatik akademiya direktori **A.Xaydarov**ga yuklatilsin.

5. 2025-yil 30-iyungacha qadar "Izohli diplomatik lug'at"ning birlamchi nusxasini tayyorlash bo'yicha ishlar yakuniga yetkazilsin. **(Ma'sullar – A.Xaydarov, I.Shamsimuxamedov).**

6. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalariga mahorat darslari o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikada akkreditatsiyadan o'tgan elchilar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan bir qatorda Diplomatik akademiya xodimlari jalb qilinsin.

7. JIDU Kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda Diplomatik akademiya tashkiliy tuzilmasi qayta ko'rib chiqilsin. **Muddat: 10 mart.** Mazkur masala ijrosi Diplomatik akademiya direktori **A.Xaydarovga** yuklatilsin.

4-MASALA. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaror ijrosi to'g'risida (Hujjat E)

ESHITILDI: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi qaror ijrosi bo'yicha prorektor **G.Ismailov**ning ma'lumoti tinglandi.

Bildirilgan mulohazalar:

Ma'lumot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq foizi 2-6-C- ilovaga asosan belgilansin va tasdiqlansin.

3. Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq to'lash 2025-yilning 1-yanvaridan 2025-yilning 31-dekabr kuniga qadar to'lanishi belgilansin.

4. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat o'z zimmasida qoldiraman.

5-MASALA. Universitet o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya qilish to'g'risida (Hujjat F)

ESHITILDI: Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrasida professori **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani** 08.00.09. – “Jahon iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha professor unvoniga tavsiya etish;

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasida dotsenti **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnani** 12.00.10 – Xalqaro huquq ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish

Professor va dotsent ilmiy unvonini berish uchun saylangan hisob komissiyasi (I.Xodjayev, E. Borisova, N. Raimova) bayonnomasi o'qib eshittirildi, ovoz berish natijalari e'lon qilindi.

QAROR QILINDI:

1.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovanning professor unvoniga talabgor **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani**ning pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1.2. Professor unvoniga talabgor **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani**ning ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-apreldagi 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.

1.3. **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani** professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi fakultet yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.

1.4. **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani** professor ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi bayonnomasi ma'qullansin.

1.5. Professor ilmiy unvoniga da'vogar **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovna** nomzodi tasdiqlansin va professorlik unvoni berilsin.

1.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Gulyamova Gulshahnoz Sobirovnani**ning hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin.

Muddat: 2025-yil 16-fevral.

2.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovanning dotsent unvoniga talabgor **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnaning** pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.2. Dotsent unvoniga talabgor **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnaning** ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-apreldagi 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.

2.3. **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnani** dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi fakultet yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.

2.4. **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnani** dotsent ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi bayonnomasi ma'qullansin.

2.5. Dotsent ilmiy unvoniga da'vogar **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevna** nomzodi tasdiqlansin va dotsentlik unvoni berilsin.

2.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Mirhamidova Mahinnora Nurullayevnaning** hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin. Muddat: 2025-yil 16-fevral.

TURLI MASALALAR

6.1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o'qituvchilarini Scopus/Web of Science tizimida chop etilgan maqolalari uchun rag'batlantirish Nizomini tasdiqlash to'g'risida (Hujjat G)

ESHITILDI: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o'qituvchilarini Scopus/Web of Science tizimida chop etilgan maqolalari uchun rag'batlantirish Nizomini tasdiqlash to'g'risida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailova** axborot berdi.

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professor-o'qituvchilarini Scopus/Web of Science tizimida chop etilgan maqolalari uchun rag'batlantirish "gi Nizomi 3A-6-G -ilovasiga ko'ra tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova zimmasiga yuklatilsin.

6.2. ESHITILDI: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar mavzularini tasdiqlash to'g'risida

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar mavzulari 3B-6-G -ilovasiga ko'ra tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova zimmasiga yuklatilsin.

Akademik kengash majlisiga raisi



S.S. Safoyev

Akademik kengash kotibi

M.D. Abduraxmanova